

GLOBALLASHUV SHAROITIDA HUDUDLARNING INVESTITSIYA MUHITINI YAXSHILASH CHORA-TADBIRLARI

Abdushaxidova Nilufar Obid qizi

*Toshkent amaliy fanlar universiteti Iqtisodiyot
fakulteti “Tarmoqlar iqtisodiyoti va buxgaltirya”
kafedrasi Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)
ta’lim yo‘nalishi 22-01 guruh 4-kurs talabasi.*

Annotatsiya. Ushbu maqolada globallashuv jarayonining hududlararo iqtisodiy raqobatga ta’siri hamda hududlarning investitsiya muhitini yaxshilash zarurati yoritilgan. Investitsiya muhitining tarkibiy qismlari, O‘zbekistonda bu boradagi islohotlar, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari tahlil qilingan. Shuningdek, investitsiyalarni jalb etish bo‘yicha hududiy darajadagi strategik chora-tadbirlar ishlab chiqish, infratuzilmani modernizatsiya qilish, raqamli boshqaruv tizimini kengaytirish kabi amaliy tavsiyalar ilgari surilgan. Maqolada ilgari surilgan takliflar O‘zbekiston hududlarining investitsiya jozibadorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: globallashuv, investitsiya muhiti, hududiy rivojlanish, infratuzilma, iqtisodiy strategiya, raqamli boshqaruv, investorlar huquqlari, investitsiya raqobati.

Globallashuv jarayonlari natijasida davlatlar va ularning hududlari o‘rtasidagi iqtisodiy raqobat tobora kuchayib bormoqda. Bu holat investitsiya faoliyatini rag‘batlantirish, sarmoyadorlar uchun qulay muhit yaratish va mavjud iqtisodiy resurslardan samarali foydalanishni taqozo etadi. Har bir hudud o‘zining raqobatbardoshligini ta’minlashda investitsiya muhitini yaxshilashga ustuvor e’tibor qaratmog‘i lozim.

Investitsiya muhiti — bu investorlar faoliyat yuritadigan iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy va tashkiliy shart-sharoitlar majmuidir. Asosiy omillar quyidagilardan iborat:

- Huquqiy muhit – qonunchilikning soddaligi va barqarorligi;
- Infratuzilma – transport, aloqa, energetika va sanoat zonalari holati;
- Soliq va moliyaviy tizim – soliq yuki va kredit resurslarining mavjudligi;
- Mehnat bozori – malakali ishchi kuchi mavjudligi;
- Davlat boshqaruvi sifati – korrupsiya darajasi va davlat xizmatlari sifati.

Globallashuv investorlarning sarmoya yo‘naltirishda qulay sharoitlarni izlashini kuchaytirmoqda. Bu esa har bir davlat va uning hududlari o‘rtasida investitsiyalar uchun raqobatni keskinlashtirmoqda.

Milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashda xorijiy investitsiyalar muhim omillardan biri hisoblanadi. Bu investitsiyalar orqali mamlakatimizda zamonaviy texnika va ilg'or texnologiyalarni ishlab chiqarish jarayonlariga joriy etish imkoniyati vujudga keladi. Natijada, mahalliy korxona va tashkilotlarda innovatsion faoliyat faollashadi, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish kengayadi.

Xorijiy investitsiyalar nafaqat texnik yangilanishni, balki yangi kasb va mutaxassisliklarning paydo bo'lishini ham ta'minlaydi. Bu esa, o'z navbatida, qo'shimcha ish o'rinalining yaratilishiga sabab bo'ladi. Aholining bandlik darajasi ortib, daromadlari oshadi, turmush darajasi yaxshilanadi. Shuningdek, ijtimoiy va iqtisodiy ehtiyojlarning qondirilishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratiladi.

Investitsiyalar hisobiga eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi ortadi, bu esa milliy iqtisodiyotga valyuta tushumining oshishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, import o'rnini bosuvchi mahsulot va xizmatlarning ishlab chiqarilishi yo'lga qo'yilib, chet el valyutasining ortiqcha sarflanishining oldi olinadi. Bu ichki bozorni mustahkamlashga va iqtisodiy mustaqillikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Yana bir muhim jihat shundaki, xorijiy investitsiyalar evaziga mavjud ishlab chiqarish quvvatlarining yangilanishi, eskirgan uskunalar va texnologiyalarning almashtirilishi ta'minlanadi. Natijada, ishlab chiqarish samaradorligi va resurslardan foydalanish unumdarligi oshadi, zamonaviy talablar darajasida ishlovchi korxonalar faoliyati yo'lga qo'yiladi.

Shu boisdan, mamlakatimizda tarkibiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, real sektor korxonalarining investitsion faolligini oshirish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va texnik-texnologik yangilanish jarayonlarini jadallashtirish borasida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bunday investitsiyalarni jalb etish esa, eng avvalo, mamlakatdagi investitsion muhitning jozibadorligini ta'minlash orqali amalga oshiriladi. Bu yo'nalishda davlat tomonidan soddalashtirilgan tartiblar, soliq imtiyozlari, erkin iqtisodiy zonalar va boshqa rag'batlantiruvchi choralar ko'rilmoxda.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan investitsiya siyosati milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlash va xalqaro iqtisodiy munosabatlarda raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qilmoqda. Shu maqsadda hukumat tomonidan bir qator ustuvor yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, tashqi iqtisodiy faoliyatni bosqichma-bosqich erkinlashtirish, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy sarmoyalarni jalb etish uchun zarur bo'lgan qonunchilik bazasini, ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmani va boshqa muhim omillarni rivojlantirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan.

Bundan tashqari, xorijiy investorlarga zamonaviy texnologiyalarni mamlakatimizga olib kirish va iqtisodiyotimizni modernizatsiya qilishda ko'maklashadigan qulay investitsion muhit yaratish choralar izchil amalga

oshirilmoqda. Bu siyosat orqali yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni rivojlantirish, mahalliy xo‘jalik subyektlarining zamonaviy tuzilmasini shakllantirish, shuningdek, global iqtisodiy muhitdagi noaniqliklar va inqiroz xavflariga qarshi mustahkam iqtisodiy poydevor yaratish maqsad qilinmoqda.

Xususan, korxonalarini texnik va texnologik yangilash, zamonaviy va eksportbop mahsulotlar hamda xizmatlarni ishlab chiqarishga yo‘naltirish orqali ularning raqobatbardoshligini oshirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bu orqali nafaqat jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy ta’sirlarini kamaytirish, balki uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikka erishish imkonini yuzaga keladi.

Shuningdek, global miqyosdagi valyuta bozorlarining beqarorligi, moliya institutlarining kreditlash imkoniyatlarining kamayishi, shuningdek, investitsion faollikning pasayishi kabi omillar bugungi kunda ko‘plab davlatlarning iqtisodiy rivojlanish sur’atlariga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bois, O‘zbekiston sharoitida investitsiya siyosati nafaqat kapital qo‘yilmalar hajmini oshirish, balki ularni iqtisodiyotning muhim tarmoqlariga, ayniqsa, yuqori samaradorlik va innovatsion rivojlanish imkoniyatiga ega sohalarga yo‘naltirish orqali takror ishlab chiqarish jarayonining sifatini yaxshilashga qaratilgan.

Ya’ni, olib borilayotgan kompleks investitsiya siyosati O‘zbekistonning global iqtisodiyotdagi mavqeini mustahkamlash, ichki ishlab chiqarishni rivojlantirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va umumiyligi iqtisodiy salohiyatni oshirishga xizmat qilmoqda.

Shuni ham aytish joizki, xorijiy kapital oqimini jalb qilishda investitsiya muhitining qulayligi muhim strategik omil sifatida namoyon bo‘ladi. U iqtisodiy barqarorlik, investorlar uchun qulay va ishonchli qonunchilik-me’yoriy baza, shuningdek, rivojlangan va zamonaviy infratuzilmalar bilan chambarchas bog‘liqdir. Mazkur omillar uyg‘unligi xorijiy investorlar ishonchini mustahkamlab, ularning sarmoya kiritish bo‘yicha faoliyatini rag‘batlantiradi.

Investitsiya muhitining jozibadorligini oshirish orqali mamlakat iqtisodiyotida keng ko‘lamli ijobjiy natijalarga erishish mumkin. Jumladan, iqtisodiyotning diversifikatsiyasi, zamonaviy texnologiyalarning joriy etilishi, yangi ish o‘rinlarining yaratilishi hamda ishlab chiqarish samaradorligining oshishi ta’minlanadi. Shuningdek, xorijiy sarmoya oqimi ilmiy-texnik salohiyatning oshishiga va mahalliy tadbirkorlik faoliyatining faollashuviga zamin yaratadi.

Zamonaviy raqamli texnologiyalar investitsiya jarayonlarini modernizatsiya qilishda muhim vosita sifatida e’tirof etilmoqda. Elektron platformalar yordamida sarmoya loyihamalarini tanlash, ularni real vaqt rejimida kuzatib borish, tegishli hujjatlarni rasmiylashtirish va axborot almashinushi jarayonlarini soddalashtirish mumkin. Bu esa investitsiya jarayonlarining tezkorligini oshiradi, shaffoflikni ta’minlaydi va potensial investorlar uchun xavfsiz va barqaror muhit yaratadi.

Shu bilan birga, innovatsion boshqaruv usullarining joriy etilishi investitsion muhitni takomillashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Strategik rejalarshirish asosida iqtisodiyotning ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash, ular doirasida investorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, loyihalarga moliyaviy ko‘mak ko‘rsatish va infratuzilmani rivojlantirish orqali mamlakat investitsion jozibadorligi sezilarli darajada oshadi.

Ya’ni, xorijiy investitsiyalarni jalb etish va milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish yo‘lida qulay investitsiya muhiti muhim poydevor vazifasini bajaradi. U iqtisodiy o‘sish, innovatsion texnologiyalar transferi va xalqaro hamkorlikni chuqurlashtirish kabi jarayonlarga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, raqamli texnologiyalar va innovatsion boshqaruv yondashuvlarini amaliyotga joriy etish investitsion siyosatning samaradorligini oshirishda hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qiladi.¹

Xulosa qilib aytganda, globallashuv sharoitida hududlarning investitsiya salohiyatini oshirish ularning iqtisodiy barqarorligiga xizmat qiladi. Investitsiya muhiti raqobatbardosh va qulay bo‘lishi, huquqiy kafolatlar, infratuzilma, raqamli boshqaruv va inson resurslari kabi omillarni qamrab olgan holda yaxshilanishi lozim. Taklif etilgan chora-tadbirlar O‘zbekiston hududlarining investitsion jozibadorligini oshirib, uzoq muddatli iqtisodiy taraqqiyotga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Soliyev A., Abdurahmonov Q. Hududiy iqtisodiyot. – T.: Iqtisodiyot, 2020.
2. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston – 2030 strategiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2023.
3. Tojiboyev B. Investitsiyalar siyosati va iqtisodiy xavfsizlik. – T.: Iqtisodiy fanlar akademiyasi, 2020.
4. Mustafoyev I. Raqamli iqtisodiyotda investitsion strategiyalar. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2021.
5. Alimov R., Qosimov N. Investitsiyalar asoslari. – T.: Fan va texnologiya, 2019.
6. Axmedov A. Raqobatbardoshlik va investitsiya muhiti. – T.: IQTISODIYOT, 2021.

¹ Axmedov A. Raqobatbardoshlik va investitsiya muhiti. – T.: IQTISODIYOT, 2021.